



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

INTERNET DAVRIDA JURNALISTIKADA SUD JARAYONLARINI YORITISHNING TRANSFORMATSIYASI

Raximjonova Shahloxon Bahromjon qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada internet texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida sud jarayonlarini yoritish tizimida yuz berayotgan nazariy va institutsional transformatsiyalar tahlil qilinadi. Internet davrida huquqiy jurnalistikaning funksional roli qayta talqin qilinib, uning miqdoriy qisqarishi bilan birga sifat jihatidan transformatsiyaga uchrayotgani asoslanadi. Maqolada sud va huquqiy jurnalistika o'rtasidagi munosabatlar antagonistik emas, balki o'zaro to'ldiruvchi kommunikativ model sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: huquqiy jurnalistika, sud, internet transformatsiyasi, sud hokimiyati legitimligi, jurnalistik nazorat, demokratik institutlar.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖУРНАЛИСТСКОГО ОСВЕЩЕНИЯ СУДЕБНЫХ ПРОЦЕССОВ В УСЛОВИЯХ ИНТЕРНЕТ-ЭПОХИ

Рахимжонова Шахлохон Бахромжон кизи

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические и институциональные трансформации системы освещения судебных процессов в условиях развития интернет-технологий. В условиях цифровой эпохи функциональная роль правовой журналистики переосмысливается, обосновывается её количественное сокращение наряду с качественной трансформацией. В статье взаимоотношения между судом и правовой журналистикой интерпретируются не как антагонистические, а как взаимодополняющая коммуникативная модель.

Ключевые слова: правовая журналистика, суд, интернет-трансформация, легитимность судебной власти, журналистский контроль, демократические институты.

THE TRANSFORMATION OF JOURNALISTIC COVERAGE OF COURT PROCEEDINGS IN THE DIGITAL ERA

Raximjonova Shahloxon Bahromjon qizi

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Doctoral Researcher

Abstract

This article examines the theoretical and institutional transformations in the coverage of court proceedings in the context of the development of internet technologies. In the digital era, the functional role of legal journalism is reinterpreted, with its quantitative decline accompanied by qualitative transformation. The relationship between the judiciary and legal journalism is thus interpreted not as antagonistic, but as a complementary communicative model.

Keywords: legal journalism, judiciary, internet transformation, judicial legitimacy,

journalistic oversight, democratic institutions.

Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi ommaviy axborot vositalari tizimining iqtisodiy va institutsional arxitekturasini tubdan o'zgartirdi. Mazkur transformatsiya sud jarayonlarini yoritish amaliyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, huquqiy jurnalistikaning an'anaviy modelini qayta shakllanish bosqichiga olib keldi. Mazkur tadqiqot ishi sud jurnalistikasi evolyutsiyasini media iqtisodiyoti, sud hokimiyati legitimligi va demokratik kommunikatsiya tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kontekstida tahlil qiladi.

An'anaviy modelda sud tizimi faoliyati jamoatchilikka ommaviy axborot vositalari orqali yetkazilgan bo'lib, huquqiy jurnalistlar sud hokimiyati va jamiyat o'rtasida asosiy vositachi rolini bajargan. Sud tizimi faoliyatining tushunilishi, uning legitimligi va ijtimoiy qabul qilinishi aynan shu vositachilik mexanizmi orqali shakllangan. Biroq internet davrida mazkur mexanizm izdan chiqdi: iqtisodiy inqiroz natijasida sud jurnalistikasining resurslari qisqardi, sud jarayonlarini yoritish hajmi kamaydi va sud tizimi kommunikativ vakuum xavfi bilan yuzma-yuz keldi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot internet davrida sud jarayonlarini yoritishning transformatsiyasini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, metodologik jihatdan kompleks va ko'p bosqichli yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida huquqiy jurnalistika, sud hokimiyati legitimligi hamda media tizimlarining raqamli transformatsiyasi haqidagi ilmiy qarashlar qabul qilingan. Tahlil markazida sud tizimi va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning o'zgarishi hamda internet texnologiyalarining ushbu jarayonga ta'siri turadi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy ilmiy usullarga tayangan holda shakllantirildi. Sistemali (tizimli) tahlil usuli sud hokimiyati va jurnalistika o'rtasidagi o'zaro aloqani yagona kommunikativ tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Ikkinchidan, institutsional yondashuv asosida sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalari mustaqil, biroq o'zaro bog'liq institutlar sifatida o'rganildi. Internet davrida mazkur institutlarning funksional chegaralari qayta shakllanayotgani konseptual jihatdan tahlil qilindi. Uchinchidan, komparativ tahlil usuli qo'llanildi. An'anaviy jurnalistika modeli bilan internet davridagi yangi kommunikativ model o'zaro solishtirilib, ularning afzallik va cheklovlari aniqlashtirildi.

Sud jarayonlarini yoritish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda asosan uch asosiy yo'nalishda o'rganilgan: sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlar; huquqiy jurnalistikaning ijtimoiy funksiyasi; raqamli transformatsiyaning jurnalistika tizimiga ta'siri. Birinchi yo'nalishda jurnalistika kasbining tamoyillari va ularning amaliyotda to'qnashuvi masalasi markaziy o'rin tutadi. T. Shumilinaning jurnalistika tamoyillari konfliktlariga bag'ishlangan ishlanmasi kasbiy me'yorlarning bir-biriga zid holatda ishga tushishini, xususan tezkorlik, xolislik, ijtimoiy mas'uliyat va auditoriya manfaatlari o'rtasidagi murakkab muvozanatni ochib beradi. [9: 160] Bu yondashuv sud jarayonlarini yoritish kontekstida ayniqsa dolzarbdir, chunki sud mavzusi jurnalistdan bir vaqtning o'zida axborotning aniqligi, protsessual ehtiyotkorlik hamda jamoatchilik manfaatini qondirishni talab qiladi. Ikkinchi yo'nalish huquqiy jurnalistikaning jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi roli bilan bog'liq. O. Tretyakovanning demokratiya rivoji kontekstida jurnalistika va huquqiy madaniyat o'zaro ta'sirini tahlil qiluvchi tadqiqoti huquqiy axborotning ommaviy tarqatilishi fuqarolarning huquqiy ongini mustahkamlashi, huquqiy institutlarga ishonch va legitimlikni qo'llab-quvvatlashi mumkinligini konseptual jihatdan asoslaydi. [10: 25] Uchinchisi yo'nalishda O. O'sarovning O'zbekiston amaliyoti va xalqaro tajribani qamrab olgan monografiyasi sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalari munosabatlarini alohida mavzu sifatida qo'yib, sud axboroti ochiqligi, sud nufuzi, protsessual

cheklovlar va jamoatchilik manfaatlari o'rtasidagi muvozanat masalasini muhim ilmiy muammo sifatida ko'rsatadi.

Muhokama. Internetning paydo bo'lishi bilan bosma nashrlar iqtisodiy modeli keskin zaiflashdi. An'anaviy bosma nashrlar reklama daromadlari asosida moliyaviy barqarorlikni saqlagan bo'lsa, internet reklama biznes modelini o'zgartirdi. Dunyo gazetachilik sanoati 2000-yildan buyon umumiy hajm jihatidan 43% ga qisqardi. Bu oddiy bozor pasayishi emas, balki jurnalistika tizimining strukturaviy transformatsiyasini anglatadi. Reklama daromadlarining kamayishi natijasida redaksiyalar qisqartirildi. 2007-yildan boshlab jurnalistika sohasida 41 133 ish o'rni yo'qolgan.[5: 980]

Bu jarayon ixtisoslashgan yo'nalishlarga, xususan sud jurnalistikasiga birinchi navbatda ta'sir ko'rsatdi. Ijodiy ishchilar sonining kamayishi va gazeta resurslarining qisqarishi huquqiy jurnalistikani ikkilamchi xizmatga aylantirdi. Jahon mediasida sud jarayonlarini yorituvchi maxsus bo'limlar qisqartirildi yoki butunlay yo'q qilindi. Bu o'z navbatida sud jurnalistikasining barqaror moliyaviy bazasini yo'qotish bilan birga, uning institut sifatidagi funksiyasini zaiflashtirdi.

Iqtisodiy inqiroz natijasida media kompaniyalari tezkor, soddalashtirilgan va ko'proq shov-shuvga yo'naltirilgan kontent ishlab chiqarishga intilmoqda, murakkab huquqiy tahlil o'rnini qisqa yangiliklar, dramatik voqealar yoki yuzaki izohlar egalladi. Huquqiy jurnalistika esa odatda murakkab huquqiy izohlar, hukm va qaror asoslarini talqin qilishni talab qiladi.[3; 62] Iqtisodiy jarayonlar sud jurnalistikasini maxsus ixtisoslashuvdan umumiy yangiliklar segmentiga qisman olib keldi. Chunki huquqiy materiallarning tayyorlanishi ko'proq vaqt, chuqur tahlil va malakali jurnalist resurslarini talab qiladi — bu raqamli iqtisodiyot sharoitida past rentabellikka ega bo'ldi. Bu jarayon ijtimoiy jarayonlar va sud amaliyoti o'rtasidagi uzilishlarga sabab bo'ladi. Akademik tadqiqotlarda ham huquqiy jurnalistikaning sifat-mazmun jihatidan yuqori talablar asosida yoritilishi muhimligi qayd etiladi. Chunki yoritish faqat axborotni tarqatish bilan cheklanmaydi — u hamjamiyatda qonuniylik madaniyatini shakllantiradi.[1: 3]

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli reformatsiya natijasida jurnalistika "turg'un" kasb qiyofasini o'zgartirmoqda, u ko'proq "ommaviy kontent" yetkazib berishga intilmoqda, holbuki sud jurnalistikasi aniq fakt va huquqiy to'lqinlarga asoslanishi lozim.[4: 152] Bu esa huquqiy jurnalistikaning jamiyatga ijtimoiy funksiyasini sezilarli darajada susaytirdi.

Sud jurnalistikasi materiallari sonidagi pasayish empirik ma'lumotlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ohio Oliy Sudi (AQSh) faoliyati bo'yicha 2003–2006-yillarda yiliga o'rtacha 1224,5 ta material e'lon qilingan. 2007–2011-yillarda bu ko'rsatkich 925 taga tushgan. 2019-yilda esa atigi 783 ta material chop etilgan. 2006-yildagi taqqoslaganda 41 % kamayish kuzatilgan.[2: 585] Bu sud hokimiyati faoliyati ommaviy axborot maydonida keskin qisqarganini ko'rsatadi.

Natijalar. Sud jarayonlarini yoritish hajmining kamayishi jamiyatga bir qator ijtimoiy ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, sud qarorlaridan xabardor bo'lish imkoniyati pasayadi, bu esa fuqarolarning huquqiy bilim darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, sudlarni yoritish hajmi sud hokimiyati va fuqarolar o'rtasidagi kommunikativ bog'lanishni susaytiradi. Sud qarorlarini yetarlicha yoritilmasligi jamiyatda hukm va qarorlarning asoslanishiga nisbatan ishonchsizlikni oshirishi mumkin. Uchinchidan, yoritish hajmining kamayishi murakkab yoki siyosiy jihatdan sezgir jarayonlar haqida yetarli ma'lumot yetib kelmasligini anglatadi — bu esa demokratik nazorat mexanizmlarini susaytiradi. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda sud jurnalistikasining ixtisoslashuvini saqlab qolishning ahamiyati muhim omil sifatida qayd etiladi. Sud tizimining shaffofligi va jamoatchilik ishonchi mustaqil

va professional yorituvchilar orqali yaratiladi.

Sud hokimiyati legitimligi jamoatchilik ishonchiga tayanadi. Sud qarorlarining ijro etilishi ko'p jihatdan majburiy mexanizmlardan ko'ra ularning asoslanganligiga bo'lgan ijtimoiy ishonch bilan belgilanadi. Sud jurnalistligi boshqa ixtisoslashuvlar singari umumiy mediadan farq qiladi — u yuridik terminologiyaga chuqur kirish, huquqiy jarayonlarni kontekstual tahlil qilish hamda qarorlar mazmunini soddalashtirib tushuntirishni talab etadi. [6: 35]

Jurnalist ekspertlar va akademik tahlilchilarning fikricha, ixtisoslashgan jurnalistlarning mavjudligi sud jarayonlarini yoritish oladigan mustaqil tahlil mexanizmini yaratadi. Sud qarorlarining huquqiy izchilligini aniqlash va ularning jamiyatga ta'sirini baholash mahorati hamma jurnalistda ham bo'lmaydi. [7: 135]

Media tizimidagi zaiflashuv sharoitida sudlar bevosita kommunikatsiya modeliga o'ta boshladi. Internet texnologiyalari sudlarga rasmiy saytlar, videoplatformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborotni bevosita tarqatish imkonini berdi. Sudlarning bevosita jamoatchilik bilan bog'lanishida bir qancha afzalliklar mavjud:

- haqqoniylikni ta'minlaydi;
- tezkorlikni oshiradi;
- sud tizimi ochiqqligini kuchaytiradi;
- interpretatsion xatolar (noto'g'ri talqin qilish, tushunish yoki sharhlash) ehtimolini kamaytiradi;
- sud hokimiyati mustaqil institut sifatida obyektiv axborot manbai bo'lishi mumkin.

Biroq bu model sud qarorlarining ijtimoiy kontekstini izohlash vazifasini jurnalistlar yotirishi zaruratini yo'qotmaydi. Sud o'z qarorlarini e'lon qilsa ham, uning ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy oqibatlarini talqin qilish hamon mustaqil medialarga bog'liq. Huquqiy jurnalistika mustaqil tahlilni, kontekstual sharhni, jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi. [8: 25] Shu sababli huquqiy jurnalistika demokratik tizimning zarur elementi bo'lib qoladi. Sudlarning bevosita axborot modeli huquqiy jurnalistikaning tugashini anglatmaydi, aksincha, u uni transformatsiyaga majbur qiladi.

Xulosa. Internet texnologiyalarining rivojlanishi sud jarayonlarini yoritish tizimida strukturaviy va funksional transformatsiyani yuzaga keltirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy jurnalistik vositachilik modeli zaiflashgan sharoitda sud hokimiyati bevosita kommunikativ subyekt sifatida shakllanmoqda. Sud tizimi legitimligi jamoatchilik ishonchi va axborot ochiqqligi bilan uzviy bog'liq ekani tadqiqot davomida asoslandi. Sudlar tomonidan axborotni bevosita tarqatish modeli shaffoflikni oshiradi va axborotning autentikligini ta'minlaydi, biroq u mustaqil jurnalistik nazorat va tahliliy interpretatsiya funksiyasini to'liq almashtira olmaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, internet davrida sud va huquqiy jurnalistika o'rtasidagi munosabatlar o'zaro to'ldiruvchi kommunikativ model asosida rivojlanmoqda. Sud tizimi birlamchi axborot manbai sifatida faoliyat yuritib, huquqiy jurnalistika ushbu axborotni tahlil qiluvchi, kontekstual sharhlovchi va jamoatchilik nazoratini ta'minlovchi institut sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Ushbu xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Sud jarayonlarini yoritishda ixtisoslashgan huquqiy jurnalistlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kuchaytirish zarur.
2. Huquqiy jurnalistikaning nazorat va tahlil funksiyasini mustahkamlash orqali sud hokimiyati legitimligini qo'llab-quvvatlash zarur.
3. Raqamli platformalarda sud jarayonlarini yoritishning etik va kasbiy standartlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Shunday qilib, internet davrida sud jarayonlarini yoritish tizimi yangi kommunikativ muvozanat bosqichiga o'tmoqda. Ushbu jarayonda sud tizimi va huquqiy jurnalistika o'rtasidagi hamkorlik demokratik institutlar barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Березина, Е. Правовая журналистика в системе средств массовой информации современной России (на материале газет «Ведомости», «Известия», «Коммерсантъ», «РБК daily», «Российская бизнес-газета») (Автореф. дис. ... д-ра филол. наук, М.2012.
2. Davey, C. J. The future of online legal journalism: The courts speak only through their opinions? I/S: A Journal of Law and Policy for the Information Society, 8(3), 575–604.2013.
3. Хамдамов, Ю. Тараққиёт мезони (62–98 б.). Тошкент: Ўзбекистон.2013.
4. Маматова, Ё. Правовая пресса: зарубежная практика и опыт Узбекистана. Ўзбекистонда хорижий тиллар, (1), 151. <http://www.journal.fledu.uz> 2018.
5. Mintz, H. Legal journalism today: Change or die. Missouri Law Review, 79(4), 977–987. 2014
6. Нурматов, А., Дўстқораев, Б., Мўминов, Ф., Тошпўлатова, Н., & Махсумова, С. Журналистика назарияси, тарихи ва тараққиёти. Тошкент: Ўзбекистон.2019.
7. Ўсаров, О. Оммавий ахборот воситалари ва суд ҳокимияти муносабатлари: Ўзбекистон амалиёти ва халқаро тажриба. Тошкент: Юрист-медиа маркази. 2013.
8. Шеуджен, Ф. Журналистский правовой текст (проблема судебной интерпретации) (Дисс. ... канд. филол. наук, Краснодар. 2015.
9. Шумилина, Т. Конфликт принципов журналистики. Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика, (1), 155–167.2011
10. Третьякова, О. Журналистика и правовая культура общества: взаимодействие в контексте развития демократии (Автореф. дисс. ... д-ра полит. наук, СПб.2012.